

DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNING HUQUQIY CHEGARALARI VA ISTIQBOLLARI

Jo'rayev O'zbekxon Dilshodbek o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Huquqshunoslik fakulteti,

Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Telefon: +998908451200 E-mail: jurayevxofiz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21114187>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga sun'iy intellekt tizimlarini integratsiya qilishning ma'muriy-huquqiy jihatlari tizimli tahlil qilinadi. Raqamli ma'muriy aktlarni shakllantirishda algoritmik boshqaruvning qonuniy chegaralari, diskretsion vakolatlar daxlsizligi hamda fuqarolarning subyektiv huquqlari himoyasi kafolatlari xorijiy va milliy tajriba prizmasida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, algoritmik boshqaruv, ma'muriy-huquqiy tartibga solish, diskretsion vakolat, raqamli ma'muriy akt, inson huquqlari kafolatlari, bog'langan vakolat, elektron hukumat.

Аннотация. В статье осуществляется системный административно-правовой анализ интеграции систем искусственного интеллекта в деятельность органов исполнительной власти в условиях цифровой трансформации. В призме зарубежного и национального опыта исследованы законные пределы алгоритмического управления, неприкосновенность дискреционных полномочий и гарантии защиты субъективных прав граждан при формировании цифровых административных актов.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, алгоритмическое управление, административно-правовое регулирование, дискреционные полномочия, цифровой административный акт, гарантии прав человека, связанное полномочие, электронное правительство.

Abstract. This article provides a systematic administrative and legal analysis of integrating artificial intelligence systems into executive authorities under digital transformation. Through the prism of international and national experience, it examines the legal boundaries of algorithmic governance, the inviolability of discretionary powers, and safeguards for citizens' subjective rights in digital administrative acts.

Keywords: Artificial intelligence, algorithmic governance, administrative and legal regulation, discretionary power, digital administrative act, human rights guarantees, bound competence, e-government.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat apparati va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish tizimi tub raqamli transformatsiyani boshidan kechirmoqda. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat ekotizimining rivojlanishi an'anaviy ma'muriy-huquqiy institutlarni yangilashni talab etmoqda. Bu jarayonda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiya qilish eng dolzarb strategik yo'nalishga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham davlat boshqaruvi subyektlarining funksional samaradorligini oshirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda ommaviy xizmatlar ko'rsatish sifatini yangi bosqichga

olib chiqish maqsadida sun'iy intellekt tizimlarini joriy etishning salmoqli normativ-huquqiy bazasi shakllantirilmoqda.

Biroq, intellektual-algoritmik tizimlarning ma'muriy tartib-taomillarga faol kirib kelishi an'anaviy ma'muriy huquq fani va amaliyoti oldiga qator jiddiy muammolarni ko'ndalang qo'yimoqda. Algoritmiklar tomonidan inson aralashuvisiz qabul qilinayotgan avtomatlashtirilgan raqamli ma'muriy aktlarning qonuniyligi, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi va daxlsizligi masalalari huquqiy tartibga solishni talab etadi. Huquqshunoslik doktrinasida "Mashina yoki algoritm yo'l qo'ygan texnik-mantiqiy xatolar uchun yakuniy huquqiy javobgarlik kimning (dasturchimi, davlat organimi yoki tizimning o'zimi) bo'yniga tushadi?" yoki "Avtomatlashtirilgan qarorlar ustidan fuqarolarning sud orqali himoyalani sh huquqi qanday kafolatlanadi?" degan fundamental savollar hozirgacha to'liq yechimini topmagan.

Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi davlat boshqaruvida sun'iy intellekt tushunchasining ma'muriy-huquqiy mohiyatini, uning instrumental xususiyatlarini tizimli tahlil qilish hamda ushbu tizimlarni qo'llashning huquqiy chegaralarini belgilashdan iborat. Bu esa milliy ma'muriy qonunchilikdagi mavjud huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish va fuqarolarning huquqiy maqomini raqamli muhitda kafolatlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" hamda hukumatning 2025–2026-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari bu boradagi islohotlarning o'zagini tashkil etadi. Mazkur strategik hujjatlar talablariga ko'ra, my.gov.uz (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali) platformasida ko'rsatiladigan xizmatlarda sun'iy intellektga asoslangan yechimlar ulushini oshirish, shuningdek, davlat boshqaruvida raqamli ma'lumotlar bazasi va hisoblash serverlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Shu sababli, yaqinda qabul qilingan "Sun'iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo'yicha etika qoidalari" davlat boshqaruvida SI tizimlaridan foydalanuvchilar va ularni joriy etuvchilarning huquq va majburiyatlarini muvofiqlashtirishda dastlabki qadam bo'ldi. Ammo ma'muriy-huquqiy munosabatlarda "algoritmik boshqaruv" hamda uning an'anaviy davlat xizmati prinsiplari bilan mutanosibligi hamon chuqur ilmiy-nazariy tahlilga muhtoj.

Bu esa milliy ma'muriy qonunchilikdagi mavjud huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish, algoritmiklarning korrupsion xavflarni va inson omilini kamaytirishdagi rolini o'rganish hamda fuqarolarning huquqiy maqomini raqamli muhitda kafolatlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Zamonaviy huquqshunoslik va axborot texnologiyalari doktrinasida sun'iy intellekt (SI) — bu insonning intellektual funksiyalarini, xususan, mantiqiy fikrlash, o'rganish, xulosa chiqarish, tajribani tahlil qilish va ijodiy yondashuvni simulyatsiya qila oladigan, ya'ni taqlid qilishga qodir maxsus algoritmik va dasturiy-texnik tizimlar majmuidir. Milliy qonunchilik tizimida ushbu tushunchaga aniq normativ ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra sun'iy intellekt inson tomonidan belgilangan maqsadlar to'plami uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, ulardan xulosalar chiqarish, bashorat qilish, tavsiyalar berish yoki qarorlar qabul qilish kabi natijalarni shakllantira oladigan hamda haqiqiy yoki virtual muhitga ta'sir ko'rsatadigan sun'iy tizim hisoblanadi.

SI an'anaviy kompyuter dasturlaridan o'zining „mashinali o'rganish“ (Machine Learning) va „o'z-o'zini rivojlantirish“ xususiyati bilan tubdan ajralib turadi. U oldindan yozilgan qat'iy kod doirasida cheklanmay, unga taqdim etilgan katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) mustaqil tahlil qilish orqali o'z ishchi algoritmlarini optimallashtirib borish imkoniyatiga ega.

Davlat boshqaruvida SI tushunchasi va qo'llanish sohalari

Umumiy texnik ta'rifdan farqli o'laroq, ma'muriy huquq fani prinsiplari doirasida davlat boshqaruvidagi sun'iy intellekt — ijro etuvchi hokimiyat organlarining boshqaruv faoliyatini va ma'muriy tartib-taomillarini optimallashtirish, ommaviy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish hamda qonunchilikda qat'iy standartlashtirilgan, ya'ni bog'langan vakolatlar doirasida inson omilisiz avtomatlashtirilgan qonuniy ma'muriy qarorlar qabul qilish uchun qo'llaniladigan intellektual-algoritmik tizimlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi.

Bugungi kunda milliy boshqaruv tizimida SI tizimlari tomonidan inson ishtirokisiz raqamli ma'muriy aktlarni shakllantirishning yorqin huquqiy misollari mavjud:

Ta'lim sohasida abituriyentlarni talabalikka tavsiya etish qarori: Bilim va malakalarni baholash agentligi axborot tizimi imtihon ballarini hisoblaydi va inson aralashuvisiz qonuniy mezonlar asosida davlat granti yoki to'lov-shartnoma asosida o'qishga qabul qilish haqidagi yakuniy elektron qarorni generatsiya qiladi.

Huquqiy tartibot sohasida avtomatlashtirilgan ma'muriy jarimalar: Yo'l harakati qoidabuzarliklarini fiksatsiya qiluvchi "aqlli kameralar" transport vositasi tezligini o'lchaydi, ma'lumotlar bazasidan mulkdor shaxsini aniqlaydi va inson omilisiz jarima solish haqidagi elektron ma'muriy bayonnomani tasdiqlaydi.

Ommaviy xizmatlar sohasida standart ruxsatnomalar va ma'lumotnomalar: Fuqaroning soliq majburiyatlari mavjud emasligi, tug'ilganlik holatini qayd etish, subsidiyaga arizalarni dastlabki mezonlar bo'yicha saralash kabi jarayonlar to'liq avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ma'muriy-huquqiy chegaralar va Mezonlar

Ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt tizimlari tomonidan inson aralashuvisiz qaror qabul qilinishi mutloq xarakterga ega emas. Milliy qonunchilik normalariga ko'ra, insonning huquq va erkinliklariga daxldor bo'lgan, huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi qarorlarni faqatgina SI xulosalariga tayanib qabul qilish taqiqlanadi. Mazkur avtomatlashtirilgan mexanizm faqatgina ma'muriy organning diskretsion, ya'ni tanlov huquqi mavjud bo'lmagan, qonun normasi qat'iy belgilangan imperativ holatlargagina xosdir. Davlat organlarining diskretsion vakolatlari hamda inson huquq va erkinliklarini cheklovchi jazo choralari sohasida esa yakuniy huquqiy qaror faqat va faqat inson (mansabdor shaxs yoki sudya) tomonidan qabul qilinishi shart.

Davlat boshqaruvida sun'iy intellekt tushunchasi quyidagi o'ziga xos mezonlar bilan karakterlanadi:

Algoritmik boshqaruv predmeti: Davlat boshqaruvida SI shunchaki texnik hisob-kitob vositasi emas, balki ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyektlararo kechishini belgilovchi va fuqarolarning huquqiy maqomiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi instrumental omildir.

Raqamli ma'muriy akt yaratuvchisi: SI tizimi vakolatli davlat organi nomidan ma'lumotlarni tahlil qilib, inson aralashuvisiz elektron ma'muriy hujjatlarni qonuniy shakllantirish qobiliyatiga ega.

Subyektivlikni neytrallashtirish: U davlat boshqaruvida korrupsion xavflarni, mansabdor shaxslarning shaxsiy qarashlari, simpatiya va antipatiyalarini butunlay istisno etadi. Qonun normalarini barcha obyektlar uchun bir xil, qat'iy matematik aniqlikda va tenglik prinsipida qo'llaydi.

Davlat boshqaruviga sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ma'muriy huquq nazariyasi va amaliyotida jiddiy ilmiy munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Bir tomondan, SI tizimlari inson omilini kamaytirib, korrupsion xavflarni neytrallashtirsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning huquqiy himoyasi borasida qator huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu sohadagi eng asosiy muammolardan biri — algoritmik xatoliklar va huquqiy javobgarlik subyektini belgilash masalasidir. Amaliyotda "aqlii kameralar" yoki avtomatlashtirilgan davlat xizmatlari tizimida texnik yoki mantiqiy xatolar yuz berganda, yakuniy javobgarlik kimning zimmasiga yuklanishi qonunchilikda aniq ko'rsatilmagan. Amaldagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, ma'muriy hujjat muayyan davlat organi tomonidan qabul qilinishi shart. Biroq, dasturiy kod muallifi (xususiy kompaniya yoki dasturchi) yo'l qo'yan xato tufayli fuqaroning huquqi buzilsa, ma'muriy javobgarlik zanjiri uzilib qolmoqda. Bizning fikrimizcha, SI tomonidan generatsiya qilingan har qanday raqamli ma'muriy akt uchun uni joriy etgan davlat organi to'liq huquqiy javobgarlikni o'z bo'yniga olishi lozim.

Ikkinchi dolzarb masala — davlat organlarining diskretion (tanlov) vakolatlari va SI chegarasidir. Yuqorida ta'kidlanganidek, SI faqat qonun normasi qat'iy belgilangan imperativ holatlardagina samarali ishlaydi. Ammo ma'muriy huquqda davlat organining vaziyatga qarab o'z mulohazasi bilan qaror qabul qilish (diskretion) huquqi ham mavjud. Sun'iy intellekt tizimlari insoniy his-tuyg'u, ijtimoiy adolat va oqillik mezonlarini tushuna olmaydi. Shuning uchun, fuqarolarning huquqlarini cheklovchi, ularga majburiyat yuklovchi yoki jazo choralari qo'llashni nazarda tutuvchi sohalarda qaror qabul qilish huquqini to'liq algoritmarga topshirish mutloq mumkin emas. SI davlat boshqaruvida faqat yordamchi, tahliliy vosita bo'lib qolishi, yakuniy so'zni esa inson (mansabdor shaxs) aytishi shart.

Uchinchi muammo — shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligi bilan bog'liq. SI tizimlari to'g'ri ishlashi uchun juda katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) qayta ishlaydi. Davlat organlari ixtiyoridagi fuqarolarning shaxsiy, moliyaviy va tibbiy ma'lumotlari algoritmlar tomonidan tahlil qilinayotganda kiberxavfsizlik va sizib chiqish xavfi ortadi. Bu esa raqamli ma'muriy muhitda shaxs daxlsizligini himoya qilishning yangi, yanada qat'iy huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqot davomida davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llashning huquqiy va amaliy asoslari o'rganilib, quyidagi muhim ilmiy hamda amaliy natijalarga erishildi:

Huquqiy maqom va qonunchilik bazasi tizimlashtirildi. Milliy qonunchilikda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-sonli Qarori va yaqinda qabul qilingan idoralararo etika qoidalari asosida sun'iy intellekt tushunchasining huquqiy chegaralari aniqlandi.

SI tizimlari davlat organi nomidan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni mustaqil qabul qiluvchi subyekt emas, balki faqat elektron ma'muriy hujjatlarni qonuniy shakllantiruvchi instrumental vosita (algoritmik mexanizm) ekanligi huquqiy jihatdan isbotlandi.

Ma'muriy vakolatlar ikki guruhga ajratildi. Davlat boshqaruvida SI subyektligini qo'llash doirasi uning qat'iy chegaralari bo'yicha klassifikatsiya qilindi:

Bog'langan (imperativ) vakolatlar: Yo'l harakati qoidabuzarliklarini fiksatsiya qilish, soliq qarzlarini hisoblash va standart elektron ma'lumotnomalar berish kabi inson omili talab etilmaydigan sohalarida SI tomonidan to'liq avtomatlashtirilgan elektron ma'muriy aktlar yaratilishi mumkin.

Diskretsiya (tanlov) vakolatlar: Jazo choralari, inson huquqlarini cheklovchi sanksiyalar yoki vaziyatga qarab adolat mezonini qo'llash talab etiladigan sohalarida yakuniy qaror qabul qilish huquqi faqat insonda (mansabdor shaxs yoki sudyada) qolishi shartligi ilmiy asoslandi.

Inson omili va subyektivlik darajasi pasayishi isbotlandi. Ta'lim sohasida abituriyentlarni saralash (Bilim va malakalarni baholash agentligi tizimi) hamda my.gov.uz platformasidagi skoring tizimlari misolida SI korrupsion xavflarni, mansabdor shaxslarning shaxsiy qarashlari va subyektiv baholarini butunlay neytrallashtirishi amaliy misollar bilan tasdiqlandi. Algoritmilar qonun normalarini barcha obyektlar uchun bir xil va qat'iy matematik aniqlikda qo'llashi orqali ma'muriy munosabatlarda tenglik prinsipini ta'minlamoqda.

Huquqiy bo'shliqlar kompleksi aniqlandi. Tizim amaliyotda samarali ishlayotgan bo'lsa-da, algoritmik xatolar yuz berganda (masalan, noto'g'ri generatsiya qilingan jarima yoki rad javoblari) yakuniy huquqiy javobgarlik zanjirining uzilib qolishi, kiberxavfsizlik va Big Data tizimlarida shaxsga doir ma'lumotlarning sizib chiqish xavfi mavjudligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda davlat boshqaruvida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ma'muriy tizimni shaffof, tezkor va inson omilidan xoli bo'lgan zamonaviy servis modeliga transformatsiya qilishning asosiy omilidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI ma'muriy organning bog'langan vakolatlari doirasida korrupsiyani yo'qotish va tenglikni ta'minlashda yuksak samaradorlikka ega. Biroq, davlat boshqaruvini to'liq algoritmilar ixtiyoriga topshirish inson huquqlari va huquqiy davlat prinsiplariga zid keladi.

O'tkazilgan tizimli tahlillar asosida milliy qonunchilikni va ma'muriy amaliyotni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Huquqiy javobgarlik subyektini aniq belgilash. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga alohida norma kiritish lozim. Unga ko'ra, sun'iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan tizimlar yo'l qo'ygan algoritmik va texnik xatolar natijasida fuqarolarga yetkazilgan zarar uchun ushbu texnologiyani amaliyotga joriy etgan davlat organi to'liq huquqiy javobgar deb hisoblanishi shart. Bu dasturchi va davlat organi o'rtasidagi javobgarlik bo'shlig'ini to'ldiradi.

Diskretsiya vakolatlar daxlsizligini qonuniy mustahkamlash. Normativ-huquqiy hujjatlarda sun'iy intellekt faqat qonun normasi qat'iy belgilangan (imperativ) jarayonlardagina mustaqil qaror qabul qilishi mumkinligi cheklab qo'yilishi kerak. Davlat organlarining diskretsiya (tanlov) vakolatlari, ijtimoiy adolat mezonlarini baholash hamda fuqarolarning huquqlarini cheklovchi jazo choralari sohasida yakuniy huquqiy akt faqat inson (mansabdor shaxs) tomonidan imzolanishi majburiy qilib qo'yilishi shart.

Raqamli ma'muriy aktlar ustidan shikoyat qilish mexanizmini soddalashtirish. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga algoritmilar tomonidan qabul qilingan avtomatlashtirilgan qarorlarni nizolashishning maxsus, soddalashtirilgan tartibini kiritish zarur.

Fuqaro o'ziga nisbatan chiqarilgan raqamli qaror ustidan shikoyat qilganda, davlat organi ushbu algoritmning qonuniyligi va xatosiz ishlaganini sudda isbotlab berish majburiyatini (og'irligini) o'z bo'yniga olishi kerak.

Kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasini kuchaytirish. Davlat boshqaruvida SI tizimlari foydalanadigan Big Data (katta hajmdagi ma'lumotlar) bazalarini muhofaza qilish uchun "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunga davlat organlari tomonidan SI algoritmlarini auditdan o'tkazish majburiyatini yuklovchi o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, davlat boshqaruvida sun'iy intellektning huquqiy chegaralarini to'g'ri belgilash raqamli makonda ham qonun ustuvorligini, ham inson huquqlari daxlsizligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – Toshkent: Adolat, 2023. – [Elektron resurs]. URL: lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni, 08.01.2018-yildagi O'RQ-457-son. – [Elektron resurs]. URL: lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, 02.07.2019-yildagi O'RQ-547-son (2026-yil 26-martdagi O'RQ-1125-sonli Qonun tahriri bilan birga). – [Elektron resurs]. URL: lex.uz. [1]
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 14.10.2024-yildagi PQ-358-son. – [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 17.02.2021-yildagi PQ-4996-son. – [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/-5297046>.
6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi, 25.01.2018-yildagi O'RQ-462-son. – [Elektron resurs]. URL: lex.uz.
7. "Sun'iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo'yicha etika qoidalari" (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi idoralararo reestri, 3787-son).